

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim
vazirligi
Urganch Davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
Mehnat ta`limi yo`nalishi
303-guruh talabasi Jumatova Muniraning
“ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti” mavzusida yozgan**

REFERATI

Qabul qildi:

**“ Mehnat talimi “kafedrasi dotsenti,
t.f.n. Yakubov X.K.**

Urganch-2017

ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti

Reja:

- 1. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti – ISO va uning faoliyatlari.**
- 2. ISO 9000 Standartlashtirishning bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligida ahamiyati .**
- 3. Boshqa xalqaro tashkilotlarning asosiy faoliyatlari.**

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti – ISO va uning faoliyatlari

Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti – Britaniya Assosiyasiyasi /British Enginezing Standards Accocciation/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918y.), Amerika qo'mitasi (1918y.) va boshqalar tashkil topdi.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqoza qildi. Shu maqsadda 1926 yili standartlashtirish milliy tashkilotlarning Xalqaro Assosiyasi (ISA) paydo bo'ldi. (ISA) ning tarkibiga 20 ta mamlakat vakillari kirdi. 1938 yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro syezd ochildi. Unda texnikaning turli sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalar tuzildi. 1939 yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISA ning faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillarda tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. ISO grek tilidan olingan bulib «teng» degan ma'noni anglatadi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISO ning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad-xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sahasida hamdo'stlik rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

- dunyo qo'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni yengillashtirish uchun choralar ko'rish;
- xalqaro standartni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarning to'rtdan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin);
- qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish;

- sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralarida tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi-Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byuro, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariyati kiradi.

ISO da prezident, vise-prezident, g'aznachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud Bosh Assambleya-ISOning Oliy Rahbari bo'lib, ISOning yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi. Bosh Assambleya qo'nim vaqtida sanoat sohasida yetakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi, xalqaro standartlashtirishning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'riladi.

Sobiq Ittifoq parchalangunga qadar Xalqaro standartlashtirish tashkilotning tarkibi 91 mamlakat vakillaridan iborat edi.

Respublikamizning dastlabki mustaqillik yillaridagi (1992 yil) muhim voqyealardan biri nufuzli xalqaro tashkilotga O'zbekiston Respublikasi 92 davlat sifatida qabul qilinishi bo'ladi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasi ISOning teng huquqli a'zolaridan biri hisoblanadi.

Mahsulot sifatini yaxshilash, boshqarish va ta'minlash bo'yicha oxirgi vaqtda qilingan ishlarni mujassamlab, ISO o'zining bir qator me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqdi, bu hujjatlarga ISO 9000, 10011 va 10012 raqamli standartlarni ko'rsatish mumkin.

ISO 9000 Standartlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq ho'jaligidagi ahamiyati

Oxirgi paytda 9000 seriyadagi ISO xalqaro standartlari to'g'risida ko'p eshitiyapmiz. Xush, bu standartlar qanday standartlar va nima uchun qo'llaniladi? Bu seriyadagi standartlar sifat tizimlarini korxonalarda tadbiq etishga mo'ljallangan xalqaro modellar bo'lib hisoblanadi.

Chet davlatlarda sifat tizimi bo'lmagan korxona yoki firma bilan ishlab bo'lmaydi. Chunki birinchidan hech qanday kafolat yo'q, ikkinchidan esa siz shartnoma tuzganingizda ham, siz bilan ishlovchi boshqa subyektlar bundan bexabar bo'lganlarida ularning sizga nisbatan ishonchlari kamayishi mumkin. Shu sababdan sifat tizimlariga nihoyatda jiddiy ahamiyat berishimiz kerak.

Hozirda Respublikamizda xalqaro sifat tizimlarini tadbiq etgan yoki bunga harakat qilayotgan korxonalar soni kun sayin ko'payib bormoqda Chkalov nomidagi TAICHB, qimmatli qog'ozlar kombinati, tizimlari asosan ISO 9001, ISO 9002 va ISO 9003 standartlari ko'zda tutilgan bo'lib, bu modellar o'zaro qo'lam bilan farq qiladi.

ISOning sifat ta'minoti xususidagi asosiy standartlari:

ISO 9000, "Sifatni umumiyboshqarish va sifatni ta'minlash bo'yicha standartlar. Tanlash va qo'llash bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar";

ISO 9001, "Sifat tizimlari. Loyihalashda va (yoki) ishlab chiqarishda, yig'ishda va xizmat ko'rsatishda sifatni taminlaydigan model";

ISO 9002 "Sifat tizimlari. Ishlab chiqarishda va yig'ishda sifatni taminlaydigan model";

ISO 9003 "Sifat tizimlari. Tugal nazoratda va sinovlarda sifatni taminlaydigan model";

ISO 9004, "Sifatni umumiy boshqarish sifat tizimlarining elementlari. Rahbariy ko'rsatmalar";


ISO 10011 "Sifat tizimlarini tekshirishda rahbariy ko'rsatmalar";

ISO 10012 "O'lchash vositalarining sifatini ta'minlaydigan talablar".

Bular bilan bir qatorda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti uch tilda atamalar lug'ati yaratgan bo'lib, mahsulot sifatini ta'minlash sohasida ularning ta'riflarini ham ishlab chiqqan. Bulardan tashqari ISO/MEK (Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) tomonidan ham birqancha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

2002 yili mazkur standartning yangi versiyalari qabul qilindi. Bunga ko'ra standartlarda sezilarli darajada ham tarkibiy, ham mazmunan o'zgarish kiritildi. Standartlarning soni ham 2 taga kamaydi. Agar oldingi standart (ISO 9001) bandlarga 20 ta bo'lgan bo'lsa, endilikda ular 8 taga keltirildi.

Eng asosiy, bu standartlar ustivor sifatni doimiy tarzda yaxshilab borish siyosatini qo'llaydi va istemolchining talabi bajarilgan bo'lishini talab qiladi. Hozirgi O'zbekistonda ISO 9000:2000 seriyasidagi standartlar qo'llanilishi boshlangan. 1-rasmda ISO 9001:2000 standartlarining joriy etilishi sabablari va shu standartlar talablariga muvofiq. Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish etaplari keltirilgan.



1-rasm ISO 9001:2000 Standartlarining joriy etilishi sabablari

ISO 9001:2000 standartlar talablariga muvofiq Sifat menejmenti tizimini ishlab
chiqish va joriy etish etaplari

SMT joriy etishga tayorlash va ishlab chiqish etaplari	Seminar o'tkazish
	Baholash Auditini o'tkazish
	Ishchi guruh barpo etish
	ISO 9001:2000 standartlarini o'rganish
SMT ishlab chikish etapi	Hujjatlashtirishni ishlab chiqish metodlarini o'rganish
	Barcha hujjatlashtirishni bosqichlari bo'yicha ishlab
	Barcha ishlab chiqilgan hujjatlar tahlili
SMT joriy etish etapi	Hujjatlashtirishni yuritish
	Ichki auditga o'qitish
	Ichki auditni o'rganish
	Tuzatuvchi va ogohlantiruvchi harakatlari
	SMT samadorligining tahlili

Boshqa xalqaro tashkilotlarning asosiy faoliyatlari

Xalqaro elektrotexnik komissiyasi (EMK) Elektronika sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha ishlar 1881 yildan boshlagan, chunki bu yili elektr bo'yicha xalqaro kongress bo'lib o'tgan edi. Keyinroq 1906 yili Londonda 13 mamlakat vakillarining konferensiyasida maxsus idora xalqaro elektrotexnika komissiyasi tuzish to'g'risida fikrga kelindi. Bu idora elektr mashinalari sohasi bo'yicha atamalar va parametrlarni standartlashtirish masalalari bilan shug'ullana boshladi. MEK nizomiga ko'ra, bu tashkilotning maqsadlari elektrotexnika va radiotexnika va ularga qo'shni tarmoqlardagi muammolar, sohalaridagi standartlashtirish masalalarini hal qilishdir.

ISO va MEK faoliyatlari bo'yicha shug'ullansa, ISO esa qolgan boshqa hamma sohalar bo'yicha standartlashtirish bilan shug'ullanadi.

Hozirgi vaqtda 41 ta davlat MEKning a'zolari hisoblanadi. Bu mamlakatlarda Yer qurrasining 80% aholisi yashab, 95% dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining iste'molchisi hisoblanadi. Bu asosan sanoat rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlardir. MEK ingliz, fransuz va rustillarida ish olib boradi. MEKning Oliy rahbar idorasi MEK kengashidir, u yerda mamlakatning hamma milliy qo'mitalari taqdim etilgan. Unda eng yuqori lavozim prezident bo'lib, u har 3 yil muddatiga saylanadi. Bundan tashqari vise-prezident, g'aznachi, bosh kotib lavozimlari ham bor. MEK har yili bir marta o'z kengashiga yig'iladi va o'z faoliyati doirasidagi masalalarni hal qiladi.

1972 yilga qadar MEK va ISolar tomonidan yaratilayotgan hujjatlar tavsiya sifatida faoliyat ko'rsatar edi. 1972 esa MEK, ISOlarning tavsiyalari xalqaro standartlarga aylantirilishi haqida qaror qabul qilindi.

Metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi Xalqaro tashkilot 1955 yilda tashkil etilgan. Uni qisqartirilgan holda MOZM (Mejdnarodnaya organizasiya zakonadatelnoy metrologii) deb ataladi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi davlat

metrologik xizmatlarni va boshqa milliy muassalarning faoliyatlarini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirishdir.

MOZM faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- MOZMga a'zo bo'lgan mamlaktlar uchun o'lchash vositalarining uslubiy me'yoriy metrologik tavsiflarining birligini belgilash;
- qiyoslash uskunalarini, solishtirish usullarini, etalonlarni tekshirish va attestatlashini, namunaviy va ishchi o'lchash asboblarini uyg'unlashtirish;
- xalqaro qo'lamda birxillashtirilgan o'lchash birliklarini mamlakatlarda qo'llanishini ta'minlash;
- metrologik xizmatlarning eng qulay shakllarni ishlab chiqish va ularni joriy etish bo'yicha davlat ko'rsatmalarining birligini ta'minlash;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda metrologik ishlarni ta'min etish va ularni zarur texnik vositalari bilan ta'minlashda ilmiy-texnikaviy yordamlashish;
- metrologiya sohasida turli darajalarda kadrlar tayyorlashning yagona qonun qoidalarini belgilash.

MOZMning Oliy rahbar idorasi metrologiyadan qonun chiqaruvchi Xalqaro konferensiyasi hisoblanib, u har to'rt yilda bir marta chaqiriladi. Konferensiya tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ishchi idoralarining ma'ruzalarini tasdiqlaydi, byudjet masalalarini muhokama qiladi. MOZM ning rasmiy tili-fransuz tilidir.

Undan tashqari 1961 yilda tuzilgan Yevropa standartlarni muvofiqlashtirish qo'mitasi ham mavjud.

Sifat bo'yicha Yevropa tashkiloti (YeOKK).

Sifatni nazorat qilish Yevropa tashkiloti YeOKK (Yevropeyskaya organizatsiya po kontrolyu kachestva) bo'lib, uning birinchi konferensiyasi 1957 yilda chaqirilgan va shu yilning o'zida uni nizomi ham tasdiqlandi

Sinov laboratoriyalarining akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiyasi (ILAK). ISO va MEK ishlab chiqqan xalqaro qoidalariga asosan laboratoriyalarni akkreditlashdan maqsad sinov laboratoriyalarni aniq sinovlar yoki aniq tur sinovlari (ISO/MEK Rukovodstvo 2.86) qo'nimga huquq berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimov A.K. Standartizatsiya (uchebnoe posobie). Tashkent, 2004.111 s
2. Dimov YU.V. Metrologiya, standartizatsiya i sertifikatsiya (uchebnik 2 izdanie). Moskva, Sank-Peterburg, Nijniy Novgorod, Voronej, Rostov-na-Donu, Novosibirsk, Ekaterinburg, Samara, Kiev, Xorkov, Minsk, 2006-s. 13-197(430).
3. Metrologiya, standartizatsiya, sertifikatsiya i elektroizmeritelnaya texnika (Pod redaksiy K.K. Kima, uchebnoe posobie) Moskva Sankt-Peterburg, 2006-s.314-338-(361)
4. Goncharov A.A., Корылов V.D. Metrologiya, standartizatsiya i sertifikatsiya (uchebnik dlya vuzov). M.: «ASADEMA», 2005-s. 111-180 (236).
5. Kupryakov E.M. Standartizatsiya i kachestvo promyshlennoy produkcii (uchebnik dlya vuzov). M.: «Vysshaya shkola», 1991, -303s.

**Urdu Pedagogika fakulteti Mehnat ta'limi yo'nalishi 143-
guruh talabasi Jumatova Muniraning 'ISO xalqaro
standartlashtirish tashkiloti' mavzusidagi referatiga
TAQRIZ**

Men mehnat ta'limi kafedrasi dots. X.Yaqubov talaba Jumatova Muniraning 'ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti' mavzusidagi referati bilan yaqindan tanishib chiqdim.


Ushbu referatda ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti haqida mal'lumotlar keltirilgan. ISO 9001:2000 standartlarining joriy etilishi sabablari va shu standartlar talablariga muvofiq. sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish etaplari keltirilgan.

Bu referatda xalqaro standartlashtirish tashkiloti – ISO va uning faoliyatlari, ISO 9000 Standartlashtirishning bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligida ahamiyati ,hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning asosiy faoliyatlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ushbu referat mavzusi aniq va to'liq yoritilgan. Men bu referatni ZIYONET tarmog'iga tavsiya qilaman.

Mehnat ta'limi kafedrasi dotsenti

 **X.K. Yoqubov**



UrDU Pedagogika fakulteti Mehnat ta'limi yo'nalishi
143-guruh talabasi Jumatova Muniraning "ISO xalqaro
standartlashtirish tashkiloti" mavzusidagi referatiga

TAQRIZ

Men mehnat ta'limi yo'nalishi Jumatova Muniraning "ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti" mavzusidagi referati bilan yaqindan tanishib chiqdim.

Ushbu referatda ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti haqida ma'lumotlar keltirilgan. ISO 9001:2000 standartlarining joriy etilishi sabablari va shu standartlar talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish etaplari keltirilgan.

Bu referatda xalqaro standartlashtirish tashkiloti - ISO va uning faoliyatlari, ISP 9000 Standartlashtirishning bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligida ahamiyati hamda, boshqa xalqaro tashkilotlarning asosiy faoliyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu referat mavzusida aniq va to'liq yoritilgan bolib referatni "Ziyonet" tarmog'iga joylashtirishga tavsiya qilaman.

Urganch shaxar maishiy xizmat ko'rsatish
Kasb-hunar kolleji direktori



SH. Ro'zmetova.

